

CURRENT OVERVIEW OF ARCHIVE BUILDINGS

Dilfuza Juraeva

Director of the State Archives of Surkhandarya region

Annotation

This article is written about the present state of the archive buildings. As we mentioned above, it is important to make good use of life experiences in any country, especially the treasure that is considered a huge treasure, an incomparable source - always being aware of historical events, events that happened once, news that occurred, and scientific achievements. you have to stand. And such a huge treasure is stored in the so-called archive for centuries. Of course, collecting rare manuscripts whose history goes back to several centuries, unique documents related to the life activities of a person or the fields of production, scientific and cultural activities carried out in their time, processing them in order to pass them on to the next generations. especially important tasks such as storage are entrusted to the archives.

Keyword: History, people, welcome, society, nation, man, value.

Annotatsiya: Ushbu mqola arxiv binolarining bugungi jamoli haqida yozilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday davlatda ham hayotiy tajribalardan unumli foydalanish, ayniqsa, ulkan xazina, bemisl manba hisoblanuvchi xazinadan – tarixiy ahamiyatga molik voqealardan, bir paytlar ro'y bergan hodisalardan, yuzaga kelgan yangiliklardan, ilm-fan yutuqlaridan hamisha xabardor bo'lib turmoq kerak. Ana shunday ulkan xazina esa asrlar osha arxiv deya atalmish hujjatgohlarda saqlanadi. Tabiiyki, tarixi necha-necha asrlarga borib taqaluvchi nodir qo'lyozmalarni, biror shaxsning hayoti faoliyatiga yoki ishlab chiqarish sohalariga, ilmiy, o'z davrida olib borilgan madaniy ishlarga oid noyob hujjtlarni bir joyga jamlash, saralash, keyingi avlodlarga beshikast etazish uchun ishlov berish, ayniqsa, saqlash kabi muhim ishlar arxivlar zimmasiga yuklatilgan.

Kalit so'z: Tarix, xalq, qutlug', jamiyat, millat, inson, qadriyat.

Tarix haqiqatlarini yoritishda davlat arxivlarining o'rni g'oyatda ahamiyatli va beqiyos sanaladi. SHuning uchun ham bu sohaga e'tibor ko'zi bilan qaralgan. Bugungi kunga kelib esa arxivlar faoliyatini zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda yuritish choralari ko'rilmogda. Ayni paytda, har biri bitta zalvorli ahamiyatga ega hujjatlarni asrab-avaylash maqsadida yurtimizdagi barcha davlat arxivlari uchun talablar darajasidagi muhtasham binolar qurilib foydalanishga topshirilmogda[1].

Muhtaram Prezidentimiz SH.M. Mirziyoev tashabbuslari bilan O'zbekiston Respublikasining kelgusi istiqbolini ko'zlab ishlab chiqilgan "Harakatlar strategiyasi" dasturida mamlakatimizni rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab berilgan. Bu vazifalar amalga

oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishga yangicha yondashuvni, yuksak bilim, hayotda sinalgan tajribalardan oqilona foydalanishni, zamonaviy ilm va bilimlardan, hosil bo'lgan ko'nikmalardan har tomonlama unumli foydalanishni nazarda tutanligi bilan o'ta ahamiyatlidir[2]. Chunki yangilik yaratmay, salmoqli o'zgarishlar yasamay turib, rivojlanish va taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Shu ma'noda aytganda, taraqqiyotni ta'minlovchi barcha sohalar birdek izchil va barqaror rivojlantirilib borilishi zarur.

Shuning uchun ham qanday bo'lishidan qat'iy nazar, har qanday hujjatning beshikast saqlanishiga erishish uchun maxsus qurilgan va zarur jihozlar bilan ta'minlangan binolar kerak bo'ladi.

Xo'sh, Surxondaryo alohida viloyat sifatida tashkil etilgan kezlarda bu borada ahvol qanday edi, hozirgi kunda-chi?

Ushbu savolga javob topish va bugungi kunda davlat arxivlarini rivojlantirish, zamonaviylashtirishning qay darajada ekanligini anglamoq uchun tarix sahifalariga murojaat qilmoq lozim. Chunki taqqoslab ko'rilmagan, ya'ni muqoyasalarga asoslanmagan xulosalar bir yoqlama bo'lib qoladi. Shu fikrdan kelib chiqib, biz Surxon vohasida davlat arxivlarini tegishli sharoitlar yaratilgan binolar bilan ta'minlash ishlari turli davrlarda qanday yo'lga qo'yilganligi tarixi bilan qisqacha tanishib o'tsak, foydadan xoli bo'lmaydi[3].

Surxon vohasi tarixidan yaxshi ma'lumki, 1941 yil 6 martda sobiq SSSR Oliy Seveti Prezidiumining Farmoni asosida O'zbekiston SSP tarkibida bir necha, xususan, Andijon hamda Namangan viloyatlari qatorida bu paytga qadar Buxoro amirligi davrida beklik, keyinchalik esa Buxoro oblastining janubiy sarhadlarida joylashgan okrugi hisoblanib kelingan Surxondaryo vohasiga ham alohida viloyat oblast berildi².

Ushbu farmon e'lon qilinganch, yangi tashkil etilgan oblastlarda davlat arxivlarini qayta tashkil etish, saqlanayotgan hujjatlarni saralash hamda tartibga solish ishlari bilan boshlab yuborildi. Ayni paytda, viloyat tashkiliy qo'mitasining qarorlari asosida davlat arxivlari uchun alohida binolar ajratila boshladi[4].

Chunki bu davrga kelib, Surxondaryoda yangi tashkil etilgan oblast sifatida ijroiya qo'mitaning sog'liqni saqlash, rejalashtirish, suv xo'jaligi, moliya, aloqa, madaniyat, maorif, savdo bo'limlari, shu bilan birga, Ichki Ishlar Xalq Komissarligining Surxondaryo oblast arxiv bo'limi ham tashkil etildi.

Shu tariqa, vohada 1 ta oblast hamda 6 ta rayonda davlat arxivlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Oblast davlat arxivi 1 ta xonada joylashtirilib, 2 ta shtat birligi ajratildi. Natijada bir necha yil davomida oblast davlat arxivi ana shu bittagina xonada faoliyat yuritib turdi[5].

Surxondaryoda davlat arxivi ishlarini yuritish, uni yanada kengaytirish uchun sharoitlar etarli emasdi, ayniqsa, u maxsus va alohida binoga ega emas edi. Buni o'sha yillari Ichki Ishlar Xalq Komissarligining Surxondaryo oblast bo'limini boshqargan davlat xavfsizlik xizmati leytenant Artemevskiy tomonidan O'zbekiston SSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligi tomonidan yo'llangan № 29036-sonli xat 1943 yil 16 fevral kuni davlat arxivlari bo'limi

boshlig'i Ushakovga yo'llangan javob xatida ham ko'rish mumkin[6]. U shunday yozadi: "Avval ham ma'lum qilganimdek, davlat arxivi Termiz o'lkashunoslik muzeyining 3 ta tor xonasida faoliyat olib bormoqda[16]. Bu esa nafaqat yangi hujjatlarni qabul qilish imkonini bermayapti, balki mavjudlarini saqlashda ham ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Arxiv uchun ajratilgan bino arxiv hujjatlari kabi maxfiy hujjatlarni saqlash (Termiz sharoitlarida) talablariga mutlaqo javob bermaydi, u butunlay ta'mirlashga muhtoj holatga kelib qolgan. Bu binoda stellajlar yo'q, eski arxivda mavjud bo'lgan stellajlar esa to'liq ta'mirtalab bo'lib qolgan, hujjatlarning ko'pligidan qiyshayib yotibdi. Hujjatlarning bir qismi eski davlat arxivida va erda saqlanmoqda"³.

Tabiiyki, biz bu misollarni dastlabki paytlarda Surxondaryoda davlat arxivlarida ishlayotgan xodimlar qanday sharoitlarda faoliyat yuritganligini hamda misli xazina sanaladigan davlat arxivlari uchun maxsus binolar o'ta zarur bo'lganligini ta'kidlash maqsadida keltirayapmiz.

SHu ma'noda olib qaraganda, yana bir muhim hujjatdan iqtibos keltirib o'tish mumkin. Bu hujjat Surxondaryoda davlat arxivlari faoliyatini, ularga ajratilgan binolarning yaroqlilik holatini tekshirish maqsadida tuzilgan maxsus komissiya a'zolari tomonidan tayyorlangan. Jami 62 sahifalik ushbu hujjatda ham[7] Termizdagi davlat arxivi binosi mutlaqo yaroqsiz holda ekanligi qayd etilgan. Hujjatga komissiya a'zolaridan 4 kishi – Kiselev, CHumachenko, Sultanova hamda Astaxovalar imzo chekishgan. Komissiya a'zolarining xulosasida shunday deyiladi: "Arxiv shahar bozori yonidagi muzey hududida joylashgan uch xonadan iborat binoda faoliyat yuritmoqda. Bino eskirgan, ko'p yillardan buyon ta'mirdan chiqarilmagan[8]. Arxivning ikkita derazasi bor, ko'pchilik hollarda bu derazalar panjarasiz va qisman oynasiz bo'lib, ochilib yotadi. Eshiklar ham panjarasiz, yaroqsiz bo'lib, ular yupqa fanerdan yasalgan, istalgan paytda xohlagan odam arxivga bemaolol kirishi mumkin, ya'ni eshiklar oddiy osma qulflar bilan qulflanadi. Arxivda maxsus qo'riqchi yo'q. Qorovullik o'rindoshlik sifatida muzey qorovuli tomonidan amalga oshiriladi, bozor tomonidan esa hech kim tomonidan qo'riqlanmaydi. Derazalar bozor maydoni tomonga qarab ochilishi tufayli arxivda o'g'irlik qilish yoki yong'in chiqarish uchun qulayliklar tug'diradi. YOng'inga qarshi xavfsizlik choralari ko'rilmagan"⁴.

Albatta, yillar o'tgan sayin davlat arxivlaridagi sharoitlar ham, qoniqarli darajada bo'lmasada, harqalay, bir qadar yaxshilana borgan. Bu haqda O'zbekiston SSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligining arxiv bo'limi boshlig'i Seriyga 1945 yilning birinchi yarim yilligi yakunlari to'g'risida yuborilgan hisobotda ham aytib o'tilgan[9].

Hisobotda shunday deyiladi: "SHu yilning (ya'ni, 1945 yilning) may oyida davlat arxivi uchun ajratilgan bino foydalanishga yaroqli, hujjatlarni saqlash sharoitlari bor. Butun viloyat davlat arxivi joylashgan bino 6 xonadan iborat, ikkita yo'lak ham bor. Arxivda 29 ta fond mavjud bo'lib, ular №114 yo'riqnoma bo'yicha stellajlarda joylashtirilgan. Umumiy arxiv hujjatlari saqlanadigan xonalarning eshiklari qulflanadi, lekin panjaralari yo'q. Bino ta'mirga muhtoj.

Tomi loysuvoq bilan qoplangan, yomg'irda eyilib ketayotgani sababli har yili ta'mirlanishga muhtoj. Bino uch nafar o't o'chiruvchi va qorovul tomonidan qo'riqlanadi"⁵.

Ushbu hisobot 1946 yilning 18 fevralida tegishli yuqori tashkilotga yuborilgan bo'lib, u o'sha davrlarda viloyat davlat arxivida sharoitlar qanday o'zgara boshlaganligini ko'rsatadi. Albatta, bu misollar viloyat davlat arxivi tarixiga oid ma'lumotlardan olindi[10]. Lekin yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'sha yillar viloyat davlat arxivining tumanlardagi filiallarini tashkil etish ishlari ham boshlab yuborilgan edi. Xo'sh, tuman filiallarida ahvol qanday bo'lgan?

Bu boradagi savollarga yana o'sha, ya'ni yuqorida eslatib o'tganimiz O'zbekiston ichki ishlar vazirligining Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi boshlig'iga O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligining arxiv bo'limi boshlig'i Seriy tomondan yuborilgan xizmat xatidan javob topish mumkin: "O'zbekiston SSR ichki ishlar vazirligining arxiv bo'limida Surxondaryo oblast arxiv organlarida ishga to'sqinlik qilayotgan jiddiy qiyinchiliklar bor. Davlat arxivi keyingi ikki yil ichida ikkinchi marta arxiv uchun noqulay bo'lgan binoga ko'chirildi. Mavjud 8 ta rayondan faqatgina Jarqo'rg'on rayonida davlat arxivi bor. Qolgan rayonlarda yo davlat arxivlari tashkil etilmagan, yoki tegishli binoga ega emas"⁶.

Tumanlarda davlat arxivlari borasida havol haqiqatan ham yaxshi emasligini Jarqo'rg'on tuman davlat arxivi boshlig'i Merkulova tomonidan yuqori tashkilotlarga yuborilgan xat ham tasdiqlaydi. Merkulova 1947 yil 25 mayda yo'llagan №10/12-sonli xizmat xatida shunday yozadi: "Jarqo'rg'on davlat arxiviga tegishli masalani o'rganib chiqdim. Masalan, arxiv hujjatlari rayon selposiga qarashli idorada saqlanadi. Arxiv hujjatlarining bir qismi shkaflarda, bir qismi esa binoga kirish yo'lagida saqlanadi. Istalgan odam bu hujjatlarni olishi, yirtishi yoki boshqa maqsadlarda foydalanishi mumkin, hujjatlarning ko'pchiligini sichqonlar kemirib tashlagan. Men bu borada u erda ishlab turgan Eshmurotovaga 4 marta uchrashdim, hujjatlarni tiklash borasida sizning 47 yilda yuborgan № 81/15-sonli ko'rsatmangizni bajarish bo'yicha tegishli maslahatlar berdim. Lekin bu topshirig'ingiz bajarilmayapti. Hujjatlar ochiqlikda, yirtilgan holda aralash-quralash bo'lib yotibdi, ular jildlanmagan"⁷.

Lekin mana shunday yozishmalar natijasida Surxondaryo viloyatida davlat arxivlari tizimini takomillashtirish, ularni maxsus va alohida binolar bilan ta'minlash bo'yicha olib borilgan qator ishlar har jihatdan samarali bo'ldi[11]. Xususan, arxiv hujjatlari fondi hajmi va tarkibi yildan-yilga orta bordi. Bir so'z bilan aytganda, Surxon vohasi xalqining moddiy va ma'naviy hayotini aks ettirgan tarixiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan arxiv hujjatlarining tarixan tarkib topgan va doimo boyitib boriladigan maxsus majmui shakllantirildi. Boshqacha aytganda, arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan to'g'ri hamda unumli foydalanishni tashkil etish bo'yicha etarli darajada shart-sharoitlar yaratilishiga muvaffaq bo'lindi.

Ammo haqiqiy o'zgarishlar, ayniqsa, davlat arxivlarini sharoitlari yaxshi binolar bilan ta'minlash ishlari davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng amalga oshirildi.

Bunga esa mustaqillikning dastlabki yillarida, ya'ni 1992 yilning mart oyida mahalliy hokimliklar tashkil etilishi munosabati bilan erishildi[12]. Xususan, 2000 yilda Surxondaryo viloyat ijroiya qo'mitasi qoshidagi davlat arxiv bo'limi Surxondaryo viloyati hokimligi arxiv bo'limi deb yuritila boshladi. 2004 yilning 3 fevralida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi boshqaruvini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 49-sonli qarori e'lon qilingach esa, Surxondaryo viloyati arxiv bo'limi – viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasiga aylantirilgach, davlat arxivlarini nafaqat maxsus binolarga joylashtirish, yangi binolar qurish, mavjudlarini sifatli ta'mirdan chiqarish, balki arxivlarni malakali kadrlar bilan ta'minlash ishlari ham yanada jonlantirildi[14]. Natijada fuqarolar, jamiyat va davlat nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lgan matnli, qo'lyozma va mashinkada o'qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya plenkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar v.h. ahamiyatli hujjatlarni talablar darajasida saqlash imkoniyati yaratildi. Arxivlarda ishlaydigan xodimlar malakasini oshirish, ish yuritishning yangi zamonaviy usullarini qo'llash, ishni yangi texnologiyalar asosida tashkil etish, arxivlarni zarur texnik jihozlar hamda xavfsizlik uskunolari bilan ta'minlash yaxshi yo'lga qo'yildi[13].

Davlat arxivlari uchun maxsus binolarning qurilib foydalanishga topshirilishi esa yuqorida aytib o'tilgan jarayonlarni yuqori saviya hamda sifatda olib borilishini ta'minladi. Xususan, Termiz shahri markazida O'zbekistonda yagona bo'lgan etti qavatli Surxondaryo viloyati davlat arxivining zamonaviy binosi, viloyatning SHerobod, Angor va Muzrabot tumanlari markazida qad rostlagan uch qavatli[15],

Sariosiyo, Boysun va SHo'rchi tumanlarida esa ikki qavatli davlat arxivi binolarining qurilib foydalanishga topshirilishi sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan muhim qadamlar bo'ldi.

ADABIYOTLAR:

1. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 519-Фонд,, 1-ёзув, сақлов №76, 43-варақ.
2. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 519-Фонд, 2-рўйхат, 26.-иш, 26-варақ.
3. Urazova, R. T. (2016). INTERPRETATION OF THE 31ST GATHA OF YASNAIN" AVESTA". Himalayan and Central Asian Studies, 20(4), 90.
4. Ra'no, T. U. (2017). Religious and social thoughts of the people of ancient India, Central Asia and Iran. Himalayan and Central Asian Studies, 21(1), 61.
5. Уразова, Р. Т. (2022, April). АНАЛИЗ УРОВНЕЙ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ ПО РЕЛИГИОЗНЫМ ИСТОЧНИКАМ (НА ПРИМЕРЕ АВЕСТА И РИГВЕДА). In E Conference Zone (pp. 183-185).
6. Fazilat KULTAEVA. (2022). STUDY OF ERGONYMS IN UZBEKI LINGUISTICS. World Bulletin of Social Sciences, 16, 11-14.
7. Kultayeva,F. (2022, November). ERGONIMLARNING JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O 'RGANILISHI. In E Conference Zone (pp. 131-136).

8. Abdulloev, S. B. (2021). Positive Attitudes To" Dev. Central Asian People. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(01), 275-279.
9. Абдуллоев, С.Б. (2021). Позитивное отношение к « деве». Народы Центральной Азии. Американский журнал социальных наук и инноваций в образовании , 3 (01), 275-279.
10. Бобоисмойлович, А.С. (2022). Отражение празороастрийской веры в материальной культуре Средней Азии. ЦЕНТРАЛЬНО-АЗИАТСКИЙ ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ НАУК И ИСТОРИИ , 3 (11), 70-75.
11. Абдуллоев, Ш. (2021). “Даэва” лар–Ўрта Осиё қадимги халқларининг худолари. Общество и инновации, 2(8/S), 188-193.
12. Абдуллоев, Ш. (2021). Ўрта Осиё қадимги пантеонини ўрганишда «Даэва» образини тадқиқ этишининг аҳамияти. Общество и инновации , 2 (8/С), 181-187.
13. Абдуллоев, Ш. Б. (2021). “АВЕСТА” ДА КАРАПАНЛАРНИНГ ТАЛҚИНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 2), 162-168.
14. Bozorovich, S. S., & Yusupovich, K. S. (2020). The new study on the history of the early religions archaeological sources or innovative approach to the problem. American Journal of Social and Humanitarian Research, 1(5), 17-24.
15. Bakiev, A., & Yuldasheva, Z. (2020). THE FIFTH CIVILIZATION OF THE ANCIENT EAST. Theoretical & Applied Science, (8), 39-45.
16. Bakiev, A. (2021). LOCAL ORIGINS OF OXUS CIVILIZATION. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 7(5), 1-1.
17. Yuldasheva, Z. (2022). The kushan period and its place in the history of the peoples of the surkhan oasis. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 373-376.
18. Yuldosheva, Z. K., & Shohida, J. AN IMPORTANT SOURCE ON THE HISTORY OF AMIR TEMUR. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 1, 489.
19. Бакиев Анвар Ахмедович (2021). О ПЯТОЙ ЦИВИЛИЗАЦИЯ ДРЕВНЕГО ВОСТОКА. Бюллетень науки и практики, 7 (5), 541-555.
20. Boqiev, A. A. The first comments on the “Information-technological map of the written source”(VI-XIX centuries). Historical thinking. A collection of scientific and practical articles by historians, 7, 41-62.
21. Xidirova I., N. Gender Characteristics of Family Speech Speech (On the Example of the Uzbek Family) //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 196-199.

22. Raxmonjonova G., Xidirova I. CHORTOQ SO 'ZINING KELIB CHIQISHIGA OID ILMIY QARASHLAR //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 188-189.
23. Makhliyo B. et al. Linguistic Features of Artistic Similes //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 41-46.
24. Qizi, Botirova Maxliyo Baxodir, and Islomov Sardor Sanjarovich. "BADIY MATNNING LINGVISTIK MOHIYATI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.3 (2021): 46-51.
25. Botirova M., Qayumova M. Language Characteristics of Phraseological Units //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 80-83.
26. Abdualimova G. H. FE'L NISBAT KATEGORIYASINING DAVRLARARO VA TURKIY TILLARARO SOLISHTIRMASI. – 2022.
27. Tursunov, S., & Rustamova, N. (2021). Professor Mamat Haydarov: Science, Management and Youth School. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(7), 602-607.
28. Tursunov, S., Kobilov, E., Murtozoyev, B., & Pidayev, T. (2004). History of Surkhandarya.(p. 177). Editorial office of oriental publishing and Printing Company, 2, 1870-1917.
29. KULTAEVA, Fazilat. "ANALYSIS OF ERGONOMIC UNITS AT THE ONOMASTIC LEVEL." (2022).
30. Shapulatov, U., & Normominov, M. (2021). Treasure of coins found qirqqiz monument. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 397-401.
31. Shopulatov, U. K. (2021). ON THE MAIN FACTORS OF THE ESTABLISHMENT OF THE FIRST STATES (ON THE CASE OF CENTRAL ASIA). World Bulletin of Public Health, 4, 116-117.
32. Qurbonov, A. (2022). THE FIRST ALTARS OF CENTRAL ASIA OF BRONZE AGE. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 92-96.
33. Makhmaraimova, S. T., & Makhmaraimov, S. T. (2021). METAPHOR AND NATIONAL THINKING. Thematics Journal of Social Sciences, 7(6).
34. Makhmaraimova, S. T. (2021). UZBEK POLITICAL AND SOCIAL, PUBLIC DISCOURSE METAPHORIC MODELS. Thematics Journal of Education, 6(November).
35. Махмараимова, Ш. Т. (2013). Роль теоморфической метафоры в практике познания мира. Актуальные вопросы общественных наук: социология, политология, философия, история, (28), 62-67.
36. Mahmaraimova, S. T. (2013). role of the Teomorphic metaphor in practice OF THE WORLD'S COGNITION. Наука и человечество, 1(2), 68-73.

37. Makhmaraimova, S. T., & Yakibova, D. S. (2019). Speech development in lessons of physical culture by means of communicative games. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(9), 187-193.
38. Махмараимова, Ш. (2018). Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал лугати. Т.: Чўлпон, 100.
39. Махмараимова, Ш. Т. (2020). Ўзбек метафораси лингвомаданиятлар кесимида (техноморф ва теоморф метафоралар мисолида). In Гуманитарное и социально-научное знание: теоретические исследования и практические разработки (pp. 47-56).